

"MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING INNOVATSION USULLARI."

Sanginova Gulnozaxon

Qo'qon universiteti Ta'lim kafedrası katta o'qituvchisi

Halimova Muharramxon Dilshodjon qizi

Qo'qon universiteti ta'lim fakulteti

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 2-24 guruh talabasi

halimovamuharramxon@gmail.com

Annotatsiya: Kitobxonlik madaniyati – shaxsning kitobni tanlay bilishi, uni ongli o'qishi, mazmunini tushunishi hamda undan hayotiy xulosalar chiqara olish qobiliyatidir. Maktabgacha yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyati kitobga qiziqish va muhabbat, badiiy asarlarni tinglashga ishtiyoq, ertak va hikoyalarni tushunish hamda qayta hikoya qilish, qahramonlarga baho bera olish kabi jihatlar orqali namoyon bo'ladi. Kitob bolaning nutqini boyitadi, so'z boyligini oshiradi, tafakkurini rivojlantiradi va axloqiy fazilatlarni shakllantiradi. Maktabgacha yosh davrida bolalarning qiziqishlari tez o'zgaruvchan bo'lgani sababli an'anaviy o'qitish usullari har doim ham kutilgan natijani bermaydi. Shu bois ta'lim jarayonida interaktiv metodlardan foydalanish bolalarni faol ishtirok etishga undab, ularning kitob va badiiy adabiyotga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

Kalit so'zlar

kitobxonlik madaniyati, maktabgacha ta'lim, interaktiv metodlar, badiiy adabiyot, bolalar nutqi, pedagogik texnologiyalar.

Kirish

Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev yoshlarni kitob o'qishga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, ularning kitob bilan do'st bo'lishini ta'minlash hamda aholining kitobxonlik saviyasini yanada yuksaltirishga alohida e'tibor qaratish lozimligini ta'kidlaydi. Yoshlarning ma'naviy-ma'rifiy, badiiy-estetik hamda milliy va jahon adabiyotlarini mutolaa qilish madaniyatini yuksaltirish, talabalarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish bugungi kunda ustuvor vazifaga aylanmoqda. Bugungi kunda jamiyat taraqqiyoti va axborotlashuv jarayonining jadallashuvi yosh avlodning intellektual hamda ma'naviy rivojiga alohida e'tibor qaratishni talab etmoqda. Ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Kitob bolaning dunyoqarashini kengaytiradi, nutqini boyitadi, tafakkurini rivojlantiradi hamda estetik didini shakllantiradi. Bugungi kunda yosh avlodni intellektual, ma'naviy va axloqiy jihatdan barkamol qilib tarbiyalash ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri sanaladi. Ushbu jarayonda maktabgacha yosh davri alohida ahamiyat kasb etadi, chunki aynan shu davrda bolaning shaxsiyati, nutqi, tafakkuri va kitobga bo'lgan munosabati shakllanadi. Kitobxonlik madaniyatini erta yoshdan shakllantirish bolaning kelgusidagi ta'limiy muvaffaqiyatlari uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Kitob – tafakkur qanoti. Bu qanot mustahkam bo'lsa, yuksak kengliklar sari intilishdan tolmaydi. Kitobga bo'lgan qiziqish kitobsevarlarni kutubxona tomon chorlaydi. Bolalarda kitobga muhabbat uyg'otish, ularning kitobxonligini oshirishda kutubxonaning roli ham katta.

Kutubxona – ma'naviyat va ma'rifat o'chog'i. O'sib kelayotgan yosh avlodning ma'naviy dunyosini boyitishga, kitobga bo'lgan mehr-muhabbatning oshishiga xizmat qiladi. Har bir inson kutubxonalar ma'naviyat xazinasidan, bu cheksiz imkoniyatidan iloji boricha ko'proq

foydalanishi, o'zining, o'zgalarning hayotini boyitishi mumkin. Millatning ma'naviy-ruhiy dunyosini kitobga munosabati, kitobxonlik darajasiga qarab ham aniqlash mumkin. Jahon madaniyatiga munosib hissa qo'shgan ajdodlarimiz erishgan betakror yutuqlarning sababi ham kitob mutolaasidir. Kitob-ruhiyatimiz ozuqasi, u bilan do'stlashish nafaqat bizni ma'nan yuksaltiradi, balki jahonni tanitadi, ezgulikka etaklaydi.

Bolalik — beg'uborlik faslining oltin zinalaridan katta hayotga qadam qo'yayotgan farzandlarimiz qo'liga imkon qadar kitob tutqazaylik. Zero, ma'rifatli, ma'naviy boy va bilimli insonlarga yurti obod qiladi. Ilm-fan va u orqali erishiladigan farovonlik bilan dunyoga tanilish esa bebahodir.

Barkamol avlodni voyaga etkazishda kitobning tarbiyaviy ahamiyati beqiyos. Binobarin, aynan mutoala insonga bilim va axborot beradi, uning ma'naviy olamini boyitadi. Yaxshi kitob eng murakkab savollarga javob topishda beminnat dastyordir. Kitob haqida har qancha gapirish, uning sifatlarini soatlab maqtash mumkin. Sababi, eng yaqin do'st, eng zarur hamroh bo'lgan kitob, insoniyat kashf etgan ixtirolarning eng buyugi va eng qadrlisi, zamonlar o'tsada, o'z o'rnini hech nimaga bo'shatib bermagan mo'jizadir.

Donolar kitob, kitobxonlik haqida fikr bildirar ekan, adabiyotlar bilan oshno qalbga hech qachon yomonlik in qurmasligini ta'kidlashadi. Ayniqsa, bolaligidanoq kitobga mehr qo'ygan insonlarning jamiyatda o'z o'rnini, odamlar orasida obro'-etibori alohida bo'ladi.

“O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi”da “Jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish” 1- ustuvor vazifalar etib belgilandi. Bu esa bolalarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish, mutolaa ko'nikmalarining shakllanganlik darajasini baholash mezonlarini aniqlash va tizimli tarbiyalash imkoniyatlarini oshiradi.

2017- yil 12- yanvardagi “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida”gi PF-4789-sonli, 2017 yil 13 sentyabrdagi “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida”gi PQ-3271-sonli Qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar amalga oshirilmoqda. Jamiyatimizda kitobxonlik masalasiga yondoshuv turli davrlarda turlicha bo'lgan.

Pedagog olimlar O.Musurmonova, M.Inomova, S.Nishonova, U.Maxkamov, M.Quronov, S.Ochilov M.Nigmatovalarning tadqiqodlarida oilada bolalar kitobxonligi, mustaqillik va ma'naviy kamolot negizlari, shaxsni ma'naviy – axloqiy shakllantirish hamda komil inson tarbiyasida kitobning o'rnini kabi muammolar bilan uyg'un xolda tadqiq etildi.

Keyingi yillarda kitobxonlik muammolari va uni xal etish bo'yicha A.Zunnunov, Q.Yo'ldoshev, S.Matjonov, M.Mirqosimova, T.Niyazmetovalar adabiy ta'lim jarayonida, sinfdan tashqari mashg'ulotlarda, oilada bolalar kitobxonligini tashkil etishda kitob bilan ishlash metodlari haqida tadqiqotlar olib borganlar.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida: bolalar adabiy asarini o'qish va tinglash jarayoni, bola va kitob o'rtasidagi aloqa jarayoni, maktabgacha yoshdagi yoshga oid adabiy bilimlarni egallash jarayonlari jihatlari bo'lgan jarayonlarni o'rganish uchun haqiqiy ehtiyoj mavjud.

Bolalarga namuna bo'lish: Qush uyasida ko'rganini qiladi deganlaridek bolalar ham ota-onasida o'rnak oladilar. Agar ota-onalar muntazam kitob mutolaa qilsa, boshqa oila a'zolari bilan turli kitoblar to'g'risida tez-tez suhbatlashsa, kitobdan zavq olganiniko'rsatsa, bu o'z navbatida bolalar ongiga, psixologiyasiga ta'sir qiladi. Va natijada kitob o'qish asta-sekin bolalarning ham sevimli mashg'ulotiga aylanib boradi.

Har kuni kitob o'qib berish: Ota-onalar farzandlari uchun oltinga teng vaqtlarini ayamasdan, bolalarga har kuni kitob o'qib bersa, u bola ham asta-sekin kitoblarni o'qiy olishmasa darasmlariga qarab gap tuza boshlashadi, kitobni ehtiyot qiladigan bo'ladi. Uning hayotida kitoblar muhim ahamyatga ega bo'ladi. Bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish manashunday usullarda foydalanish mumkin. Shu bilan birga bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish uchun bir necha metodlaridan foydalaniladi.(5. International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health Hosted online from Jakarta, Indonesia Website: econfseries.com 30th May, 2025, Abduaxatova Sojida Nurali qizi Andijon Davlat Pedagogika Instituti talabasi).

“Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari”da aynan maktabgacha yoshdagi bolalarning kitob o'qish malakalarini rivojlantirish bo'yicha talablarda bola kitob va o'qishga qiziqish bildiradi, kutilayotgan natijalar esa quyidagilar:

- 3-4 yoshli bolalar kitob haqida tushunchaga ega; kattalardan kitob o'qib berishlarini so'raydi; o'z yoshiga mos kitoblarni tomosha qiladi; kitobdagi rasmlar va so'zlar orasidagi bog'liqlikni aniqlaydi; rasmlardan tanish ertak qahramonlarini taniydi.

- 4-5 yoshli bolalar tinglagan hikoyasiga munosabat bildiradi va kattalarga savol beradi; rasmlar asosida tinglagan asarini asosiy o'rinlarini gapirib bera oladi; badiiy asardan parcha tinglagandan so'ng asar nomini ayta oladi; o'z yoshiga mos she'rlarni yoddan biladi; kitobdan ehtiyotlab foydalanadi.

- 5-6 yosh so'zdagi birinchi tovushni biladi; kitobni mustaqil tomosha qiladi; tovushlarni farqlaydi; so'zlarni bo'g'inga bo'ladi; so'zlarga qofiya kelishtiradi; nutqning dialogik shaklini qo'llaydi, savollar beradi; she'rlarni yod oladi va ifodali o'qiydi; sevimli badiiy adabiyot, ertak va hikoya mualliflari va ularning nomini biladi; ifodalilikning ohang vositalarini to'g'ri qo'llaydi; harflarga tegishli so'zlarni topadi.

- 6-7 yosh boshqa bolalarga eslab qolgan kitob mazmunini so'zlab beradi; sodda va murakkab gaplarni nutqida qo'llaydi; so'zlarni bo'g'inlarga bo'ladi; bo'g'inli kartochkalar yordamida bo'g'inlardan so'zlar tuzadi; so'z, tovush, bo'g'in, gap haqida tushunchaga ega; kitob nomlari, rasm tagidagi yozuvlar va hokazolarni o'qiydi; bolalar ertak, she'r, hikoya nomini biladi mashhur yozuvchi va shoirlar nomini biladi. Maktabgacha 6-7 yoshdagi bolalar o'zining aniq ichki sezgisini, ongini anglaydi.

Kitobxonlik bolaning lug'at boyligini oshirish, fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va o'z fikrlarini aniq ifodalash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Kitob o'qish jarayoni bolalarda quyidagi ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi:

- So'z boyligini oshirish va yangi iboralarni o'rganish
- Grammatik jihatdan to'g'ri gap qurish qobiliyatini shakllantirish
- Matnni tushunish va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirish
- Yozma nutq orqali mustaqil fikr bildirish ko'nikmalarini shakllantirish.

An’anaviy o’qish usullari bilan bir qatorda, bugungi kunda ta’lim jarayonida innovatsion yondashuvlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Quyida bolalarning og’zaki va yozma nutqini rivojlantirishda qo’llanilayotgan ilg’or usullar haqida so’z yuritamiz.

1. **Raqamli texnologiyalar Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish kitobxonlik jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi.** Bunda quyidagi vositalar qo’llaniladi:
2. Elektron va audiokitoblar – bolalarga nafaqat o’qish, balki eshitish orqali ham matnni tushunish imkoniyatini beradi.
3. Interaktiv mobil ilovalar – o’quvchilarning kitobga bo’lgan qiziqishini oshirish va o’qish jarayonini gamifikatsiya qilish imkonini beradi.
4. Virtual va kengaytirilgan reallik (VR/AR) – bolalarga kitob mazmunini jonli ko’rinishda ko’rish imkonini yaratadi.

2. Interfaol metodlar O’qish jarayonini jonli va samarali qilish uchun interfaol ta’lim metodlaridan foydalanish muhimdir:

- Rolli o’yinlar – bolalar kitob qahramonlari obraziga kirib, matnni jonlantirishadi.
- Bahs va muhokamalar – bolalarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini oshiradi.
- Jamoaviy ijodiy yozuv – bolalar birgalikda hikoya yaratish orqali o’z yozma nutq ko’nikmalarini rivojlantirishadi.

3. Kitob asosida ijodiy topshiriqlar Bolalarning yozma nutqini rivojlantirishda ijodiy topshiriqlar muhim rol o’ynaydi:

- Matn davom ettirish – bolaning yozuvchanlik qobiliyatini rivojlantiradi.
 - Kitob qahramonlariga xat yozish – bolalar xayoliy muloqot qilish orqali kommunikativ kompetentligini oshiradi.
 - Komikslar yaratish – bolaning yozma ifoda qilish ko’nikmasi bilan birga vizual tafakkurini ham rivojlantiradi.
- (7. MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS 199 KITOBXONLIK ORQALI BOLALARNING OG’ZAKI VA YOZMA NUTQINI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION USULLARI Nematov Mirshod Yo’ldosh o’g’li Buxoro innovatsiyalar universiteti II bosqich magistranti). 1. O’zbek xalq og’aki ijodi (Eng kichiklar uchun)

Bu kitoblar bolaning til boyligini oshiradi va milliy qadriyatlarni o’rgatadi.

- **Ertaklar:** "Zumrad va Qimmat", "Urto’qmoq", "Oltin tarvuz", "Susambil".
- **Matal va tezaytiqlar:** Nutqni rivojlantirish va talaffuzni to’g’rilash uchun juda muhim.
- **Alla va o’lanlar:** Bolaning his-tuyg’ularini shakllantiradi.

2. O’zbek bolalar adabiyoti durdonalari

Bolalarning sevimli shoir va yozuvchilari asarlari:

- **Quddus Muhammadiy:** "Tabiat alifbosi", "She’rlar". (Tabiatni sevishtga o’rgatadi).
- **Anvar Obidjon:** "Bezirgan", "Oltiariq hangomalari". (Kulgi va tasavvur uchun).
- **Po’lat Mo’min:** "Yaxshilikning bog’i bor", "Rahmat deyman". (Odob-axloq haqida).

3. Jahon bolalar adabiyoti (Tarjimalar)

Dunyo miqyosida tan olingan, tarbiyaviy ahamiyati yuqori asarlar:

- **Korney Chukovskiy:** "Moydodir", "Doktor Voyjonim" (Ayg’itvoy).
- **Hans Kristian Andersen:** "Xunuk o’rdakcha", "Sadoqatli qo’rg’oshin askarcha".
- **Aka-uka Grimmlar:** "Oppog’oy va yetti gnom", "Bremen musiqachilari".

4. Rivojlantiruvchi va interaktiv kitoblar

Hozirgi zamonaviy MTT metodikasida quyidagi turdagi kitoblar "Kitoblar kitobi" vazifasini o'taydi:

- **Rasmi lug'atlar (Wimmelbook):** Matni kam, lekin rasmlarga boy kitoblar. Bolada hikoya qilish qobiliyatini rivojlantiradi.
- **Mantiqiy o'yinlar to'plami:** Ranglar, shakllar va sonlarni o'rgatuvchi kitob-o'yinlar.
- **Odobnoma kitoblari:** Kundalik hayotda o'zini tutish, salomlashish va gigiyena qoidalarini o'rgatuvchi rasmi qo'llanmalar.

Tarbiyachilar uchun metodik tavsiya:

MTTda kitob bilan ishlashda quyidagi qoidalarga amal qilish tavsiya etiladi:

1. **Katta va yorqin rasmlar:** Bolalar matndan ko'ra tasvirni tezroq qabul qiladi.
2. **Qisqa va qiziqarli syujet:** Bolaning diqqati 10-15 daqiqadan ortiq bir joyda turmasligini hisobga olish kerak.
3. **Suhbat:** Kitobni shunchaki o'qib bermasdan, "Sizningcha, keyin nima bo'ladi?" yoki "Qahramon to'g'ri ish qildimi?" degan savollar bilan bolani muloqotga tortish lozim.

Eslatma: MTT kutubxonasi uchun kitob tanlayotganda, ularning qog'ozi sifatli, suratlari esa estetik didni shakllantiradigan darajada bo'lishiga e'tibor bering.

Bolajonlarni kitob o'qishga mehr qo'yishining zo'r neyrofiziologik usuli bor!

Pedagoglar bu usullarni bixeviorizm (xulq, xarakter bilan bog'liq) va konstruktivizm deb ataydilar.

Siz oilangizdagi muhit, bolajoningizning qiziqishlaridan kelib chiqqan holda quyidagi ikki yo'ldan birini tanlab qo'llashingiz mumkin. Samarasi qishki ta'tilning o'zida namoyon bo'ladi.

Birinchi yo'l erkaroq, telefon va o'yinchoqlarga o'rganib qolgan bolajonlar uchun mos.

Bolaga har bir o'qilgan kitob sahifasi uchun maqtov, bir hikoya uchun sovg'a, kitob uchun mukofot bering. Bular shirinlik, pul, biron joyga birga borish, muzqaymoq, konsertga chipta, videoo'yin o'ynash va bolani xursand qiladigan boshqa ko'plab narsalar bo'lishi mumkin. Muhimi rag'bat o'qilgan matn o'lchamiga yarasha bo'lsin. Ya'ni bir bet o'qilgan matn uchun qimmatbaho sovg'a berish mantiqsiz bo'ladi – o'z samarasini bermaydi, sovg'aning katta-kichikligi o'qilgan hajmga qarab belgilanishi lozim.

Ikkinchi yo'l – savollar beradigan, har narsaga qiziqadigan, yaxshi ma'noda mahmadonaroq bolajonlar uchun mos.

Kitobdagi voqealarni bolangizning kundalik hayoti bilan bog'lang. Masalan, kitobdagi qahramonlar haqida gapirib, «Agar shu voqea biz bilan yuz berganida nima qilgan bo'lar edi?», «Hikoyaning davomi qanday bo'lishi mumkin?», «Qahramonga qanday yordam bersak bo'lar edi?», «Sen bu qahramonni qanday chizgan bo'lar eding?» kabi savollarni berib muhokama qiling.

Bolaning fikrini e'tibor bilan eshiting, o'z fikringizni ham ayting. Bu usul bolalar uchun kitob o'qish qiziq suhbatga olib kelishini anglashiga, fantaziya qilishiga yordam beradi.

Ushbu ikki usul qo'llanilganda farzandingiz kitob – bu qiyin matnlarni ravon o'qish uchungina kerak emasligini anglab yetadi.

Bola kitobdan qaysi yo'l bilan bo'lmasin zavq olsin, shunda kitob o'qish odat tusiga kira boshlaydi.

Bu tajribani qishki ta'tilda boshlang. Muhimi bolaning yoshiga mos kitob toping.

(8.Dinara Mo'minova, bolalar yozuvchisi)

Farzandingizga kitob o'qib berishni qanchalik tez boshlasangiz, shuncha yaxshi. Yangi tug'ilgan chaqaloq nima deyaotganingizni tushunmasa ham, u ovoz ritmini va ifoda ma'nosini ilg'ay oladi. Kelajakda uning so'z boyligi ota-onalari ovoz chiqarib kitob o'qimagan tengdoshlariga qaraganda boyroq bo'ladi, chunki bola turli so'zlarning ko'proq variantlarini eshitadi. Mutolaa qilish boshqalarni yaxshiroq tushunishga o'rgatadi.

Agar siz chaqaloqqa kitob o'qib berayotgan bo'lsangiz ham, bu masalaga ijodiy yondashing. Matnni bir xilda talaffuz qilish o'rniga turli intonatsiyalarni ishga soling. Agar kitobda rasmlar bo'lsa, unga bog'liq voqealar haqida o'qiganingizda suratlarni bolaga ko'rsating. Kattaroq bolaga esa u o'qib chiqqan kitoblari haqida savollar berish mumkin. Bu orqali mutolaa jarayonida ishtirok etish, xotira va tasavvurni faollashtirish imkonini olasiz. Masalan, boladan unga aynan qaysi qahramon yoqqanini so'rang.

Kitob tanlashda bolaning qiziqishlaridan boshlang: shunda adabiyot bolani qiziqtirgan narsalarni o'rganishning asosiy vositasi ekanligini tushunadi. Farzandingiz istagan kitoblarni xarid qilishga mutolaa qiziqishni oshiradi. Agar tez-tez kitob xarid qilishga imkoningiz bo'lmasa, birgalikda kutubxonaga boring.

Farzandingizni o'zi biror adabiyotni tanlashiga qo'yib bering. Agar u Dostoyevskiy romanlarini emas, balki faqat komikslar yoki Garri Potter haqidagi hikoyalarga qiziqsa, xavotir olmang. Asosiysi u mutolaa qilyapti. Boshqa asarlarga qiziqishni yumshoqlik bilan taklif qilishingiz mumkin, lekin bolani hali u tayyor bo'lmagan asarni o'qishga aslo majburlamang.

1. Qiziqarli materiallardan foydalanish Bolalar tabiatan qiziquvchan bo'lishadi. Shu sababli, ularga yoshiga mos, rang-barangva o'yin elementlari bilan boyitilgan materiallarni taqdim etish muhimdir. Masalan: Ranglikitoblar, rasmlar ensiklopediyalar. Bolalar uchun mos multimedialar yoki qisqa videoroliklar.

2. Hikoya qilish san'ati. Hikoya orqali bilim berish bolalarda tasavvur va ijodiy fikrlashni rivojlantiradi. O'qituvchi yoki ota-ona bolalarga o'ziga xos ovozhangibilan hikoya qilib bersa, bu ularni o'qishga undaydi. Shu bilan birga, bolalarni hikoyamazmunini taxmin qilish yoki davom ettirishga jalb qilish ham qiziqishni oshiradi.

3. O'yin texnologiyalaridan foydalanish Bolalar uchun o'yinlar – eng samarali o'qitish usulidir. O'yin orqali: Harf va so'zlarni o'rganish. Savollar va javoblar shaklida dars tashkil qilish. Turli tanlov va viktorinalar o'tkazish. Masalan, "Kim ko'proq so'z topadi?" o'yini orqali lug'at boyligini oshirish mumkin.

4. Rag'batlantirish Bolalarni kichik yutuqlari uchun maqtash, rag'batlantirish ularning o'ziga bog'langanishonchini oshiradi va keyingi faoliyatga qiziqishini kuchaytiradi. Rag'batlantirish nafaqat sovg'a orqali, balki oddiy iliq so'zlar bilan ham amalga oshirilishi mumkin.

5. Shaxsiy qiziqishlarini inobatga olish Har bir bolaning o'ziga xos qiziqishlari bor. Masalan, kimdir hayvonlar haqidaki o'qib o'qilishni xohlasa, boshqasi ertak yoki fantastik voqealarga qiziqishi mumkin. O'quv materiallari va darslarni shunga moslashtirish ularni o'qishga yanada jalb qiladi.

6. Oila va maktabning hamkorligi O'qishga qiziqish shakllanishida ota-onalar ham faol rol o'ynashi kerak. Uydagi o'qish uchun qulay muhit yaratish, oilaviy tarzda kitob o'qish va o'quv jarayonida ota-onaning ishtiroki bolalarning o'qishga bo'lgan munosabatini ijobiy tomonga o'zgartiradi (8. BOLALARDA O'QISHGA QIZIQISHNI SHAKLLANTIRISH USULLARI. Shahrisabz

Davlat Pedagogika Instituti Boshlang'ich ta'limyo'nalishi 1-kurstalabasi Eshboyeva Feruza Sherali qizi)

Xulosa

Bolalarda o'qishga qiziqishni shakllantirish muntazam va ijodiy yondashuvni talab qiladi. Qiziqarli va rang-barang darslar, o'yinlar, hamkorlik va rag'batlantirish orqalib umaqsadga erishish mumkin. O'qishga bo'lgan qiziqish bolalarning nafaqat ta'lim jarayonidagi muvaffaqiyatini oshiradi, balki ularni hayot davomida o'zini rivojlantirishga undaydi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. MAKTABGACHA VAAKTAB TA'LIMI, 2026-yil, yanvar, 1-son, Xilola Ochilova Sheraliyevna Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti "Maktabgacha ta'lim nazariyasi va metodikasi.
2. Jamiyatimizda kitobxonlik masalasiga yondoshuv turli davrlarda turlicha bo'lgan. (3. INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE "INTERNATIONAL EXPERIENCE AND MODERN APPROACHES IN PRESCHOOL EDUCATION" 15 MAY, 2024 197I Babyeva Dono Razzakovna Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrasida professori <https://doi.org/10.5281/zenodo.11200075>.
3. ANNOTATION OF MASTER'S DISSERTATION By Shohida Yusupova on).
4. International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health Hosted online from Jakarta, Indonesia Website: econferences.com 30th May, 2025, Abduaxatova Sojida Nurali qizi Andijon Davlat Pedagogika Instituti talabasi.
5. INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE "INTERNATIONAL EXPERIENCE AND MODERN APPROACHES IN PRESCHOOL EDUCATION" 15 MAY, 2024 197 MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARDA KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASI Babyeva Dono Razzakovna Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrasida professori <https://doi.org/10.5281/zenodo.11210235>.
6. MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS 199 KITOBXONLIK ORQALI BOLALARNING OG'ZAKI VA YOZMA NUTQINI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION USULLARI Nematov Mirshod Yo'ldosh o'g'li Buxoro innovatsiyalar universiteti II bosqich magistranti). 1. O'zbek xalq og'aki ijodi (Eng kichiklar uchun).
7. Dinara Mo'minova, bolalar yozuvchisi